ARABLAR DAVRIDA O`RTA OSIYODAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA SIYOSIY HOLAT.

Namangan davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti
3-bosqich talabasi
Muhammadiyev Bilol Ismoil o‘g‘li
E-mail: bilolmuhammadiyev640@gmail.com
Tel: +998883638090

Annotatsiya: Ushbu maqolada arablar tomonidan O‘rta Osiyo egallangandan so‘ng bu yerda yuritilgan siyosat, mahalliy aholiga yuklatilgan soliq turlari, ijtimoiy-siyosiy tarix, zulmga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar, arab xalifalari va noiblari tomonidan berilgan yengilliklar, Abu Muslim faoliyati hamda Umaviylar xalifaligining tugashi voqealari yoritiladi.

Kalit so`zlar: Umar ibn Abdulaziz, Sug‘d, G‘urak, Nasr ibn Sayyor, Divashtich, Kesh, Umaviylar, Abbosiylar, Abu Muslim.

Ikki bosqichda olib borilgan keng miqyosli urushlardan so‘ng, VIII asr boshlariga kelib yurtimizda arab xalifaligi hukmronligi o‘rnatildi. Mustahkamlanib olgan arab noiblari mahalliy aholini islom diniga o‘tkazdilar, dini qabul qilmaganlarga esa jizya solig‘i solindi. O‘z navbatida, boshqaruv shakli ham o‘zgarib ketdi. Movarounnahr xalifalikning muhim hududlaridan biriga aylandi. Doimiy ravishda aholining qarshiliklari va qo‘zg‘olonlari yuz berib turardi. Bu voqealar xalifalarni Xuroson va Movarounnahrni boshqarishga alohida e’tibor berishga undar edi.

Xalifa Sulaymon o‘zining shonli g‘alabalariga қурбон bo‘lgan Qutayba o‘rniga 97 (715) yilda Yazid bin Mahluvni tayin etdi. Uning dastlabki ishi Qutayba tomonidan qo‘yilgan ma’murlarni mansabdan tushirib, ularning mol-dunyolarini olmoqdan iborat bo‘ldi. Sulaymon xalifaligi davrida Yazidning istibdodini

cheklashga hech kim jur'at qilmas edi. Xalifa Umar ibn Abdulaziz uni bu lavozimdan ozod qilgan. [5, b. 71].

Arablar avval boshda Movarounnahrning hunarmandchilik va savdo shaharlari, obod viloyatlariga bostirib kirib, ularni taladilar va katta o'ljalarga ega bo'ldilar. O'lkalarni bosib olish chog'ida dehqonchilik vohalari vayron qilinib, shahar va qishloqlar vayron etildi. Suv inshootlari buzib tashlandi. Ko'pgina joylarda qurg'oqchilik yuz bera boshladi. Shaharlardan katta miqdorda qimmatbaho o'ljalar, Buxoro, Poykand va Sug'd hukmdorlaridan esa katta miqdorda tovon olindi. Arab qo'shini tarkibiga mahalliy aholi ichidan ko'plab o'g'lonlar majburan safarbar qilindi. Harbiy harakatlar natijasida aholining bir qismi halok bo'ldi, bir qismi asirga olindi. Barcha shahar va qishloqlarda o'z harbiy garnizonlarini joylashtirishgan arablar, shu harbiy kuchga tayanib aholidan turli soliqlar undirar, ularni turli jamoa ishlariga safarbar qilingan edi. Marv, Poykand, Buxoro, Samarqandda uylarning ko'p yarmi arablar ixtiyoriga topshirildi. Ba'zi istilochi zodagonlar dehqonchilik vohalaridagi eng unumdor yer maydonlar va suv inshootlarini egallab ola boshladilar. Arab oilalari qishloq va shaharlarga kelib o'rnasha boshladilar. Ariq qazish, ko'prik qurish, binolarni ta'mirlash va boshqa jamoa ishlarida aholidan bepul foydalanar edilar. Shu bilan birga, mahalliy aholi arab zodagonlari va qo'shinini ot-ulov, kiyim-kechak, oziq-ovqat, qullar va boshqa narsalar bilan ta'minlab turishi kerak edi.

Iqtisodiy hayotni o'z qo'llaridan chiqarmaslik maqsadida arablar bu yerda sosoniylar tartibidagi soliq tizimini joriy qildilar. Bu tizimga yer solig'i — xiroj (hosilning o'ndan bir yoki o'ndan ikki qismi miqdorida), chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqdan zakot (qirqdan bir miqdorda), hamda islomni qabul qilmaganlardan jizya solig'i olingan.[2, b. 153-154].

Arablar ayni zamonda islom dinini qabul qilgan va musulmon bo'lgan mahalliy aholi vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatladilar hamda ularga

imtiyozlar berdilar. Jumladan, islomni qabul qilganlar juz'ya va xiroj soliqlaridan ozod qilingan bo‘lsa, undan bosh tortganlardan bunday soliqlar qattiqqo‘llik bilan undirib olingan.Tarixchi Narshaxiyning guvohlik berishicha, Qutayba ibn Muslim: “Juma namoziga hozir bo‘lgan har bir kishiga ikki dirham beraman”, deb chaqirtirar ekan.

Islom dinini qabul qilganlarni juz'ya va xiroj soliqlaridan ozod qilish siyosatini xalifa Umar II ham yuritgan va u bu siyosatning Xurosonga 717-yilda noiblikka tayinlangan Jarroh ibn Abdulloh tomonidan bajarilishini talab qilgan. Jarroh rasman xalifaga bo‘ysungan bo‘lsa-da, bosib olingan mamlakat aholisi islomni qabul qilgan bo‘lishidan qat'i nazar, xiroj solig‘ini to‘lashi kerak deb hisoblardi. Bundan tashqari, Jarroh islomni qabul qiluvchilar uchun sunnatni shart qilib qo‘ygan. Mahalliy xalq o‘rtasida Jarroh zulmidan norozilik kuchaygan. Umar II vaziyatning murakkabligini hisobga olib, Jarrohni 719-yilda Ozar va Arman yurtiga hokim qilib jo‘natadi.[3, b. 143 - 144].

720–722-yillarda So‘g‘diyonada yuz bergan G‘o‘rak (Samarqand hukmdori) va Divashtich (Panjikent hokimi) boshchiligidagi qo‘zg‘olon arablar hukmronligiga qarshi yo‘nalgan dastlabki shiddatli xalq harakatlaridan biri bo‘lgan. Unda arablar siyosati va zulmidan g‘azabga kelgan o‘n minglab mahalliy xalq vakillari ishtirok etgan. Xurosonning yangi tayinlangan va zolimligi bilan nom chiqargan noibi Said Xarashiy katta muntazam harbiy kuch bilan mazkur qo‘zg‘olonni shafqatsizlik bilan bostirishga muvaffaq bo‘ladi. Qo‘zg‘olon rahbarlaridan biri — Divashtich ham ushlanib, qatl etiladi. 725–729-yillar davomida xalifalikning og‘ir soliq siyosatiga qarshi Samarqand, Buxoro va Xuttalon viloyatlarida ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar ham xalq ozodlik kurashida sezilarli iz qoldirdi. Qo‘zg‘olonchilarning ancha qismi arab ma'murlari siyosatiga norozilik bildirib, islom dinidan chiqadilar.

Kesh atrofida yuz bergan mahalliy aholining arablar bilan to‘qnashuvi rostmana jang-u jadall tusini olgan. 736–737-yillarda Tohariston va Sug‘dda

yangidan ko‘tarilgan kuchli qo‘zg‘olon o‘z safiga aholining turli ijtimoiy qatlamlarini jalb etgandi. Faqat Xuroson va Movarounnahrning yangi hukmdori, usta diplomat Nasr ibn Sayyor (738–748)ning uddaburon siyosati, nizoli masalalarni hal etish borasidagi epchil tadbirlari tufayligina qo‘zg‘olon harakatlarini bartaraf etish, o‘lkada muvozanatni bir qadar saqlash mumkin bo‘ldi. Bunda u mahalliy aholiga, ayniqsa uning nufuzli qatlamiga muayyan yon berish siyosatini yuritgan.[4, b. 88].

Ulkan xalifalikni 661-yildan boshlab Ummaviylar sulolasi boshqarib kelar edi. Bu sulola davrida juda ko‘p siyosiy o‘zgarishlar, diniy mazhablar, guruhlarning kuchayishi, boshqarishdagi nomutanosiblik, mustamlakachilik siyosati, zo‘ravonlik, adolatsizlikning avj olishi ro‘y berdiki, bu narsa sulolaning keyingi davrida uning faoliyatini qiyin ahvolga solib qo‘ydi. O‘rta Osiyoda va boshqa xalifalik yerlarida xalifalikka qarshi norozilik kayfiyatlari kuchli edi. Ularning soliq siyosatidan, zo‘ravonligidan quyi tabaqalar, o‘z huquqlarining kamsitilganidan esa yuqori tabaqalar norozi edi. Ummaviylarning hokimiyatini arab aholisi ham qo‘llamas edi. Ularning hokimiyatga kelishini turli guruhlar, muxolifat kuchlari noqonuniy deb bilishar edi. Avvalo xorijiylar ularga qarshi bo‘lib, xalifalik taxtining merosiy bo‘lishini noto‘g‘ri deb baholar edilar.[6, b. 201].

Hijriy 123 (milodiy 740/741) yilda Nasr ibn Sayyor islomdan qaytganlarni ta’qib qilmaslik, nohaq soliq undirmaslik va asirlarni jazolamaslik shartlari asosida sug‘diylar bilan sulh tuzib, Farg‘ona tomonga qayta yurish qiladi. Yangi xalifa Yazid III Nasrga Xurosonni boshqarish uchun yorliq jo‘natib, Xorisni afv etadi. Xalifa Marvon II davrida abbosiylar imomi Ibrohim ibn Muhammad lashkarboshi Abu Muslimga Xurosonda “qora bayroq ostida” umaviylarga qarshi kurashga fatvo berdi. Hokimiyat hijriy 131 (milodiy 748/749) yilda umaviylardan hoshimiylar xonadoni vakili Abul-Abbos Saffoh qo‘liga o‘tdi. Shu tariqa xalifalikda abbosiylar davri boshlandi.

1-yillarda Sharqiy Turk xoqonligi Uyg‘ur xoqonligi tomonidan tugatilgan bo‘lsa, G‘arbiy Turk xoqonligi 742-yildayoq barham topgan edi. Uning o‘rnini egallagan turkashlar Suluxon vafotidan so‘ng zaiflashdi. Bu vaziyatda Tan imperiyasining Turonga tahdidi oshdi. Farg‘ona ixshidi va Shosh maliki o‘rtasidagi ixtilofdan foydalangan Xitoy 751-yilda Gao Syan Szi boshchiligida yurish boshlaydi. Abu Muslim esa ularga qarshi Ziyod ibn Solih boshchiligida arab va turonliklardan iborat qo‘shin jo‘natdi. Hatto arablarga raqib bo‘lgan turkash va qarluqlar ham arab qo‘shinlari tomonida kurash olib borgani Talas yaqinidagi jang taqdirini hal qildi. Xitoy qo‘shinlari tor-mor etildi. Bu arab xalifaligining mintaqadagi mavqeini oshirdi. Turonda arab xalifaligi va islom manfaatlari himoyachisiga aylangan Abu Muslimdan xavfsiragan xalifa Abu Ja’far Mansur hijriy 158 (milodiy 754/755) yilda uni o‘z huzuriga chaqirtirib, xiyonatkorona o‘ldirtirdi.[1, b. 127].

Abbosiylar davrida ham ahvol deyarli o‘zgarmadi. Mahalliy aholining ezilishi davom etdi. Bunga qarshi yirik qo‘zg‘olonlar uyushtirildi. Jumladan, Muqanna boshchiligidagi “Oq kiyimlilar” qo‘zg‘oloni Movarounnahrning katta qismiga yoyilib, arablarga qarshi jiddiy zarba berdi. Bularning barchasi yig‘ilib, mintaqada arab xalifaligi hukmronligiga xotima yasay boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Asqarov A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. 1-jild. – T.: Ma’naviyat, 2023. – 456 b.

2. Murtazaeva R.X. O‘zbekiston tarixi. – T.: O‘AJBNT, 2003. – 675 b.

3. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-jild. – T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2010. – 512 b.

4. Usmonov Q. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. – T.: 2005. – 411 b.

5. Арминий В. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. – Т.: Info Capital Books, 2024. – 464 б.

6. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. I жилд. – Т.: 2014. – 489 б.